

**MAKTABDAGI ZO'RAVONLIK OMILLARI****Jabbarova Nafisa Jumanazarovna**

*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 11-maktab  
psixologi .*

**Ibadullayeva Zubayda Otaboyevna**

*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 24-maktab  
psixologi .*

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra, Zo'ravonlik - bu o'z mavqei va imkoniyatlarini suiiste'mol qilgan holda qasddan o'ziga va boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga qaratilgan, jismoniy kuch ishlatish, shuningdek, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tahdid shakli. Jismoniy kuch ishlatish orqali o'lim va nogironlikka olib keladigan tanaga shikast etkazish hisoblanadi. Shunga ko'ra, ta'lim muassasasidagi zo'ravonlik, o'z hududida yoki o'z xonasida, yoki mashg'ulotlar paytida, tanaffuslarda, ta'lim muassasasiga borishda va qaytishda, shunga o'xshash boshqa joylarda jumladan, ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda maxsus rejalashtirilgan, yoki o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkor harakatlar deb ta'riflanishi mumkin.

Shaxsiy omillar. Har qanday o'quvchi muayyan sharoitlarda zo'ravonlikning qurboni, huquqbuzar yoki guvohiga aylanishi mumkin. Shunga qaramay, huquqbuzarlar, jabrlanganlar va guvohlarga xos bo'lgan eng tipik shaxsiyat xususiyatlarini aniqlash mumkin.

O'zini tajovuzkor tutgan holda zo'ravonlik qilayotgan bolalar va o'spirinlar giperaktivligi, impulsivligi, ularning xatti-harakatlari va his-tuyg'ularini nazorat qilish darajasi pastligi, e'tibori tarqoqligi, maktabdagi past ko'rsatkichlari va g'azabga moyilligi bilan ajralib turadi.

Qoidaga muvofiq zo'ravonlik huquqbuzarlar uchun o'zlarini tasdiqlashlari, kuchlarini his qilishlari va namoyish etishlari uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Zo'ravonlarning tajovuzkorligi, kuchsizlarni qo'rqitishi, ularga og'riq, azob uyg'otish istagi ularning o'z g'azabini jilovlay olmasligidan emas, balki jazo xavfining muqarrar emasligidan kelib chiqadi. Ba'zi huquqbuzarlar turli xil ruhiy muammolarga duch kelishlari ham mumkin.

Tengdoshlar orasida ko'pincha bolalar va o'spirinlar o'zlarining tashqi qiyofasi, xulq-atvori bilan farq qilinsalar, zo'ravonlik qurboniga aylanishadi. Ularning ko'pchiligida do'stlari va tengdoshlarining himoyasi yo'q, bu esa ularni bezorilar uchun oson nishonga aylantirish ehtimolini beradi. Shu bilan birga, do'stlari bo'lgan juda muloyim bolalar ham zo'ravonlik va bezorilikdan

aziyat chekmoqda. Masalan, intellektual qobiliyatga ega iqtidorli bolalarning tez- tez bullingga (bezorilik) uchrashi odatiy hol. Zo'ravonlikdan jabr ko'rish, ular uchun ayniqsa qiyin, chunki ko'pincha iqtidor bilan bog'liq bo'lgan sezgi hislari bu kabi bolalarda o'ta yuqori bo'ladi. Ko'p hollarda zo'ravonlik va bezorilikka jismoniy va psixologik jihatdan o'zlarini himoya qila olmaydigan va tengdoshlari va kattalar tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydigan bolalar duch keladi. Biroq, zo'ravonlik har qanday bolaga jiddiy salbiy ta'sir qiladi.

**Oilaviy omillar.** Oiladagi ijtimoiy va psixologik bezovtalik, ota-onalar tomonidan bola hayotini nazorat qila olmaslik, oiladagi zo'ravonlik munosabatlari tajribasi, ota-onalar bilan iliq ishonchli aloqalarning yo'qligi, hissiy sovuqqonlik va oila a'zolarining past darajadagi hamjihatligi, o'zaro yordamning etishmasligi maktabda o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik ehtimolini kuchaytiradi.

Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro zo'ravonlik munosabatlari, shuningdek ota-onalar tomonidan bolalariga ko'rsatilgan tazyiqlar maktab yoshidagi bolada shaxslararo munosabatlar paradigmasini o'rnatishi mumkin. Bu xolatning natijasi o'laroq, aksariyat hollarda bolalar huquqbuzarga aylanadilar, ular ota-onalaridan o'zlarini ustun tutishga, boshqalarni kamsitishga va o'z manfaatlarini har qanday holatda ustun ko'rishga o'rganadilar.

**Atrof-muhit omillari.** Ta'lim muassasasidagi noqulay psixologik muhit, o'qishda, tengdoshlari va o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlar tufayli yuzaga kelgan stress, o'qituvchilar tomonidan tegishli nazoratning yo'qligi, ularning zo'ravonlikning ayrim ko'rinishlari bilan kurashishni istamasligi va jabrlanuvchiga o'z vaqtida va etarli darajada yordam bera olmaslik hamda o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan sodir bo'layotgan narsalarga befarqlik davomli zo'ravonlik holatlarining paydo bo'lishi va takrorlanishi hamda ularni tizimli bezorilikka aylanishi uchun qulay sharoit yaratib beradi.

O'qituvchilar, ta'lim muassasasining boshqa xodimlari tomonidan jismoniy jazoni qo'llash, qo'pol, kamsituvchi iboralar, qichqiriq va haqorat qilish, kamsitish, maktab o'quvchilari hayotining barcha jabhalarini qat'iy tartibga solishga urinishi, o'qishga haddan tashqari talablar qo'yish bilan, shuningdek, juz'iy xatti-harakatlar uchun jazo sifatida bahoni pasaytirish kabi ijro intizomini qo'llash orqali o'qituvchi ham zo'ravonlikning tashabbuskoriga aylanishi mumkin. Bu holat o'quvchilarning ta'lim muassasasi haqidagi salbiy tasavvurlarini va tajovuzkor xatti-harakatlar xavfini oshiradi. O'quvchilarning agressiv reaksiyasi, shuningdek, o'qituvchining ulardan birini ijobiy yoki salbiy

misol sifatida haddan tashqari ajratib qo'yishi o'zaro sog'lom raqobatli hamkorlikka ziyon etkazishi mumkin.

Ta'lim tizimida ishlovchi barcha xodimlar uchun eng qiyin va murakkab vaziyatni yaratuvchi omil - bu ta'lim muassasasi rahbariyati va o'qituvchilarining zo'ravonlik holatlarini tan olishdan bosh tortganida, sodir bo'lgan voqeada jabrlanuvchini ayblashda va ota-onalarni huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaat qilmaslikka ishontirganida paydo bo'ladi. Bunday harakatlar huquqbuzarlarning jazosiz qolish hissini kuchaytiradi, qurbonlar orasida ular umidsizlikni keltirib chiqaradi, zo'ravonlikning kuchayishiga yordam beradi va ko'pincha ayanchli oqibatlariga olib keladi.

Vaziyat omillari.

Vaqt va joy omili zo'ravonlik harakatlariga hissa qo'shishi mumkin. Ko'pincha zo'ravonlik koridorlarda, hojatxonalarda, bolalar maydonchalarida, kiyinish xonalarida jismoniy tarbiya daralaridan oldin yoki keyin, shuningdek kattalar bo'lmagan boshqa tanho joylarda sodir bo'ladi.

Tengdoshlarining kuzatuvchi sifatidagi ishtiroki huquqbuzar uchun o'z maqsadini amalga oshirishda, ya'ni o'zini o'zi tasdiqlash va hokimiyatini namoyish qilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. U uchun guvohlarsiz zo'ravonlik qilish mazmunga ega emas; aytish joizki, zo'ravonlik, jabrlanuvchiga shikast etkazish holatlari aynan guvohlar ishtirokida tez-tez sodir etilib turiladi. Kattalar borligi zo'ravonlikning oldini olish yoki to'xtatishi mumkin.

Spirтли ichimliklar yoki giyohvandlik moddalarining iste'mol qilinishi, yoxud shuningdek qurollarning mavjudligi zo'ravonlik ehtimolini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. Qonunbuzarlarning spirтли ichimliklarni iste'mol qilishi va qurol olib yurishi boshqa o'quvchilarga qaraganda ko'proq ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, alkogol yoki giyohvandlikdan mastlik holati ta'sir reaksiyalarni yanada kuchaytirishi mumkin va qurolning mavjudligi jiddiy shikastlanish xavfini oshiradi.

Ijtimoiy omillar.

Ta'lim muassasalarida zo'ravonlikning tabiati va tarqalishi ko'pincha butun jamiyatdagi zo'ravonlik bilan bog'liq vaziyatni aks ettiradi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlarni, madaniy me'yorlar, an'analar va qadriyatlar, qonunlar va ularga rioya etishni aks ettiradi. Umuman olganda, zo'ravonlik va ayniqsa, bezorilik paydo bo'lishining eng muhim ijtimoiy omillari gender stereotiplari, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va ommaviy axborot vositalarining ta'siridir.

Gender stereotiplari, erkaklarning ustunligi va ayollarning bo'ysunuvchanligi haqidagi an'anaviy e'tiqodlar ko'pincha qizlarga qarshi jinsga asoslangan zo'ravonlikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, o'z tengdoshlariga qaraganda jismonan zaifroq bo'lgan va xulq-atvori erkaklik va "to'g'ri" erkaklar xatti-harakatlari haqidagi umumiy g'oyalarga mos kelmaydigan o'g'il bolalar masxara qilinishi, nom qo'yish, jismoniy va hatto jinsiy zo'ravonlikning ob'ekti hisoblanadi. Tashqi ko'rinishi va xulq-atvori ayolmonand va ayol stereotiplariga mos kelmaydigan qizlar ham shunga o'xshash zo'ravonliklarga duch kelishadi. Bunday holatlarda zo'ravonlik odatiy holga aylanadi, chunki jabrlanuvchi kurasha olmaydi va shikoyat qilishdan qo'rqadi, chunki uning jinsi nomuvofiqligi uchun mahkum bo'lishdan qo'rqadi.

Ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik. Bu ta'lim muassasasidagi zo'ravonlik va bezorilikning yana bir omilidir. Boy oilalardan kelib chiqqan yoki yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lgan o'quvchilar, kam ta'minlangan o'quvchilarni rad etishlari mumkin. Maktabda muhojirlar va etnik ozchilik bezorilikka uchraydi. O'z navbatida, e'tiborsiz bo'lganlar, o'zlarining tajovuzkorlariga qarshi jismoniy zo'ravonlik qilishlari mumkin. Ta'lim muassasasining joylashgan joyi u erda zo'ravonlikning keng tarqalishiga ta'sir qiladi. Shaharning ijtimoiy jihatdan nochor joylarida yoki jinoiy muhit ko'proq bo'lgan qishloq aholi punktlarida joylashgan maktablarda zo'ravonlik holatlari tez-tez uchraydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ommaviy axborot vositalarida zo'ravonlik sahnalari fosh etilishi bolalar va o'spirinlarda o'z tengdoshlariga nisbatan tajovuzkor xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi.